

**Saida Komilova**  
**Far.D.U talabasi**

---

### **TOSHGA MUXRLANGAN DARD**

**Annotatsiya:** Xalq shoiri Usmon Azim ijodi bilan tanishish asnosida paydo bo‘lgan ba‘zi bir o‘y-fikrlarimizni falsafiy mushohada sifatida jamlashga, ifodalashga harakat qildik. Fikrlarimiz markaziga tosh obrazini qo‘ydik. Ushbu maqolada, bir tomchi toshni yorganidek, ayrim she‘rlar ham tosh qotgan yuraklarni yumshatishligi Usmon Azim she‘riyati orqali ifodalab berilgan. Shoirning she‘riy parchalari psixologik metod orqali tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Psixologik metod, Usmon Azim, tosh obrazi, tog‘, payg‘ambarlar, Misr ehromlari, tosh asri, badiiy psixologizm, ruhiy-ma‘naviy dunyo, “Bitiktoshlar orzusi”.

**Annotation:** We tried to summarize and express some of our thoughts as a philosophical observation that arose during the acquaintance with the work of the people's poet Usman Azim. We put the stone image in the center of our thoughts. In this article, it is expressed through Usman Azim's poetry that some poems soften hardened hearts, just as a drop breaks a stone. Poems of the poet were analyzed using the psychological method.

**Key words:** psychological method, Usman Azim, stone image, mountain, prophets, Egyptian shrines, stone age, artistic psychology, spiritual and spiritual world, "The Dream of Monuments".

**Аннотация:** Некоторые наши мысли мы попытались обобщить и выразить в виде философского наблюдения, возникшего при знакомстве с творчеством народного поэта Усмана Азима. Мы ставим каменное изображение в центр своих мыслей. В данной статье через поэзию Усмана Азима выражено то, что некоторые стихи смягчают ожесточенные сердца, как капля разбивает камень. Стихи поэта были проанализированы психологическим методом.

**Ключевые слова:** психологический метод, Усман Азим, каменное изображение, гора, пророки, египетские святыни, каменный век, художественная психология, духовно-духовный мир, «Сон о памятниках».

Aslida hamma narsa so‘zdan boshlangan, ya‘ni “Avvalo so‘z bo‘lgan edi”- deyiladi muqaddas kitoblarda ham. Tilimizda turli maqsadlarda ishlatiladigan so‘z va iboralar ko‘p. Men quyida anashulardan biri haqida fikr yuritmoqchiman. Bizda tog‘u-tosh degan ibora bor. Tog‘ bu yuksaklik ramzidir. Ammo, uning yuksakligi ham toshlar tufaylidir. To‘g‘ri, har qanday tosh uyumi ham tog‘ bo‘lavermaydi. Lekin, o‘zagida tosh bo‘lmagan tuproq ham tog‘dek metin va mustahkam bo‘lmaydi. Qur‘oni Karimda ham tosh bilan bog‘liq qissalar talaygina. Jumladan, Solih alayhissalomga Alloh mo‘jiza ato etdi, ya‘ni toshdan tuya bolasi, bo‘taloqni chiqarib qo‘ydi.<sup>1</sup> Yana qancha-qancha nobakor qavmlarning ustiga Allohning amri bilan tosh yomg‘irlari yog‘ildi, ular tosh bilan halok qilindilar. Do‘zaxning o‘tini ham odamlar va toshlardan iborat ekanligi aytilgan. Insoniyat tarixining ilk bosqichi ham “tosh asri”, “yoki “tosh davri” deyiladi.

---

<sup>1</sup> N.Rabg‘uziy. “Qissasi Rabg‘uziy”. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022

O‘tmishda ham tosh asosiy qurilish materiali bo‘lib hizmat qilgan. Toshidan saroylar, turli qal’alar tiklangan. Ularning eng yorqin namunalaridan biri Misr ehromlaridir. Keyinchalik o‘sha salobatli devorlar ham manjalaqlardan otilgan toshlar tufayli qulatildi. Taassufki, biz tosh qotgan yuraklar haqida, xusumat va bo‘xton toshlari haqida ko‘p eshitamiz. Inson o‘z nafratini ham, qudratini ham tosh bilan ifodalab kelgan. Dovud alayhissalomning otgan toshi pahlavon Goliafni halok etgan. Haq uchun bo‘lgan buyuk janglarda mushrik tomonidan otilgan tosh oxirgi zamon payg‘ambari bo‘lgan Rasuli Akram sallollohi alayhi vassallamning muborak tishlarini sindirgan va lablarini yorgan. Allohning buyrug‘i bilan ota-bola payg‘ambarlar Ibrohim va Ismoil alayhissalomlar Baytullohni tikladilar. “Payg‘ambarlar otasi” bo‘lgan muborak zotning oyoq izlari toshga botdi, tosh esa “Maqomi Ibrohim” nomini oldi. Baytulloh qurilishi yakunlangach Jabroil alayhissalom Allohning amri bilan ulkan gavhar toshni bino burchagiga o‘rnatdi. “Hojari asvad” deya nom olgan ushbu toshga har kuni o‘n minglab, yuz minglab qo‘llar tavof uchun intiladi.

“Boshing toshdan bo‘lsin”, “Borgan joyingda tshdek qotgin” deya duolar qilinadi. Yurtimizning eng azim shahri ham, Toshkent, ya’ni “Tosh shahar”, “Toshdek mustahkam qo‘rg‘on” deya tilga olingani bejiz emasdir.

Psixologizm tarafdorlari an’anaviy metodlarning imkoniyatlarini qayta ko‘rib chiqishdi. Madaniy-tarixiy maktab vakillaridan farqli ravishda yangi yo‘nalish vakillari ijodkorga, yozuvchining emotsiyalariga, ijodning psixologik jihatlariga, eng muhimi – avtorning ruhiy-ma’naviy dunyosi hamda ijod jarayoniga va bu jarayondagi psixologik holatlarga tibor lozim, deb hisobladilar.<sup>2</sup>

O‘zbek adabiyotining taniqli shoirlaridan bo‘lgan Usmon Azimning she’rlarini psixologik metod orqali tahlil qilishga harakat qilamiz.

Shoirning bir she’rida Elbek baxshi tilidan shunday kuylanadi:

“...Kulging kelmasa kulma,

Uyalma ko‘zyoshidan.

Peshonang qattiq bo‘lsin

Asqar tog‘ning toshidan.

Peshonaning qattiqligi ulkan matonat va sabr-toqat demakdir. Usmon Azimning “Bitiktoshlar orzusi” she’rida shoir o‘z dardini shunday ifodalaydi:

Qog‘ozlarga yozdim, qog‘ozlar yondi,

Bu sirni o‘yladim, topdim nihoyat,

Men Usmon emasman, Alpteginman men-

Enasoy bag‘rida to‘lg‘ongan g‘oya.

---

<sup>2</sup> B.Karimov. “Ruhiyat alifbosi”. - Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018

Qog‘oz yaramaydi mening kunimga,  
Qog‘ozga ko‘chmaydi yonayotgan yurak.  
Shalviragan qog‘oz kerakmas menga,  
Dardimni bitgani menga tosh kerak!  
Menga bir tosh kerak, osmon kabi keng,  
G‘azab kabi og‘ir, g‘amday benavo.  
Menga bir tosh topib berolmading, sen,  
Toshlari tuproqqa aylangan dunyo.

Hozirgi zamon o‘zbek she‘riyating eng sara asarlari qatoriga qo‘shilishga loyiq bo‘lgan mazkur she‘rni “Toshga bitilgan dard” deyish mumkin.

O‘tmishda ham aksariyat qonunlar, zafarnomalar toshga o‘yib yozilgan. Qadimgi Bobil hukmdori Hammurapi, qadimgi Eron podshohi Doro I, Rim imperatori Troyan va boshqalar ham o‘z nomlarini toshlarga muxrladilar. Bir qo‘shiqda aytilganidek: “Poyingda yotgan tosh, Bir kuni haykaling bo‘lar”, ya’ni qabr toshiga ham insonning ismi va ta’rifi yozib qo‘yilajak.

Xullas, birgina tosh tushunchasiga yana qancha-qancha tashbehtar bitish mumkin! Naqadar toshlarga boy tilimiz bor! Istaymanki, bu toshlar imoratlarga, qo‘rg‘onlarga aylansin, aslo xusumat, tuxmat toshlari bo‘lib nozik qalblarni sindirmasin. Yuraklarimiz tosh bo‘lib qotib qolmasin. Qalblarimiz so‘z sehriha oshno bo‘lsin, adabiyotga oshiq, oshufta bo‘lsin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.N.Rabg‘uziy. “Qissasi Rabg‘uziy”. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022
2. B.Karimov. “Ruhiyat alifbosi”. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018
3. U.Azim. “Yurak”. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009